



## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SOG'LIQNI SAQLASH ORGANLARI BILAN HAMKORLIK YO`NALISHLARI

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 315-guruh kursanti*

*Quvvatov Abduxoliq Mirzajon o'g'li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada profilaktika inspektorining sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari, sog'liqni saqlash muassalari bilan hamkorlikni tashkil etishning bugungi holati va hozirda ushbu sohadagi kamchilik va muammolarga doir masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'liqni saqlash, sog'liqqa qarshi jinoyatlar, tan jarohati, sog'liqni saqlash muassasalari, OITS, hamkorlik, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka chalingan shaxslar, amaliy hamkorlik, sog'lom turmush tarzi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi" deb belgilab qo'yilgan. Inson hayoti va sog'lig'i oliy qadriyat sanalganligi bois, har bir shaxsning yashash huquqlarini ta'minlash va himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, har bir insonning sog'lig'i va yashashga bo'lgan huquqi, ya'ni hayoti bu dunyoda boshqa hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan bebaone'matidir. Inson omilisiz shaxs, jamiyat va davlat, shuningdek millatlar va



mamlakatlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tasavvur qilish ilojsiz, albatta. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 3-moddasida: “har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ega” ekanligi qayd etib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasining 25-moddasida ham yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi ekanligi, inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyat hisoblanishi mustahkamlab qo‘yilgan. Jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borishda, ayniqsa, unga ta’sir qiluvchi chora-tadbirlarni, xususan, jinoyatlarni oldini olishda profilaktika sub’ektlarining hamkorligini muvofiqlashtirish, faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, usul, vosita va tartiblarni ishlab chiqish uchun uning mohiyati, kelib chiqish tarkibi, ko‘rinishlari va rivojlanish qonuniyatlari hamda tarixiy o‘tmishi haqida chuqur ilmiy asoslangan bilimga ega bo‘lish talab etiladi.

Aholi soglig’ini saqlash, sog’liqqa qarshi jinoyatlarning oldini olish borasida Ichki ishlar organlari ham ishtirot etadi hamda bu boradagi faoliyatni amalga oshirishda bevosita sog’liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlik qiladi.

Aholi sog‘lig’ini saqlash va sog’liqqa qarshi jinoyatlar hamda huquqbazarliklarning oldini olishda profilaktika inspektorining sog’liqni saqlash organlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi ob’ektiv zaruriyatni tashkil etadi. Chunki sog’liqni saqlash organlarining bevosita ish faoliyatlari fuqarolarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar tufayli yetkaziladigan zararli oqibatlarni bartaraf etish, oldini olishni profilaktika inspektori bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektori xizmat hududida aniq shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilgan holatlarda fuqaroga yetkazilgan jarohatning og‘irlik darajasini aniqlashni so‘rab, hududiy tibbiyot muassasalariga sud-tibbiy ekspertiza tayinlash choralarini ko‘radi. Zarur hollarda yetkazilgan jarohatning



og‘irlik darajasini belgilangan muddatda aniqlash maqsadida profilaktika inspektorining o‘zi fuqaroni sud-tibbiy ekspertizaga olib borishni ta‘minlaydi. Profilaktika inspektori tibbiyat muassasalaridan olingan xulosa asosida huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritadi yoki jinoyat ishini tergov organlariga oshirish choralarini ko‘radi va tegishli tartibda IIB boshlig‘iga bildirgi bilan murojaat qiladi. Bundan tashqari, respublikamizning qishloq joylarida faoliyat yuritayotgan oilaviy vrachlik punktlariga sog‘lig‘i yomonlashib murojaat qilgan fuqarolarning tan jarohatlarida ularning huquqbuzarlik, jinoyat yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar natijasida olinganlik alomatlari aniqlansa, xizmat olib borayotgan tibbiyat xodimlari bu holat haqida zudlik bilan nafaqat IIB navbatchilik qismiga, qolaversa hudud profilaktika inspektoriga xabar berishi talab etiladi. Ushbu holatda profilaktika inspektori olingan ma‘lumotlar asosida holatga oydinlik kiritadi hamda tan jarohatining huquqbuzarlik, jinoyat yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar natijasida olinganini aniqlab, aybdorlarga nisbatan tegishli choralar ko‘rinishini ta‘minlaydi. Ichki ishlar organlarining tayanch punktiga profilaktika inspektori va ichki ishlar organlarining turli sohaviy xizmat xodimlari tomonidan olib kelingan shaxslarning mastlik holatini, shuningdek ularda yaqqol ko‘rinib turgan jarohatlarning darajasini va sabablarini aniqlash maqsadida bunday toifadagi shaxslar tegishli sog‘liqni saqlash muassasalariga olib borilib, tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi hamda ushbu holat haqida ma‘lumotnomalar olinadi.

Profilaktika inspektori xizmat hududida surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan bemorlar aniqlanib tegishli asoslar, ya’ni bemorning shaxsiy tashabbusi, yaqin qarindoshlari, mahalla fuqarolar yig‘ini, mehnat jamoasi yoki sog‘liqni saqlash muassasalarining iltimosnomalar mavjud bo‘lganda, profilaktika inspektori mazkur toifadagi shaxslarni majburiy davolashga yuborish to‘g‘risidagi materiallarni to‘playdi va



tuman, shahar jinoyat ishlari bo'yicha sudiga taqdim etadi. Profilaktika inspektori xizmat hududida profilaktik hisobda turgan ruhiy kasallarning yurish-turishlari, xulq-atvorlaridan doimiy ravishda xabardor bo'lib, shu maqsadda ularning oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilarini va boshqa tegishli shaxslar bilan aloqada bo'lib kerakli axborotlarni o'rganadi. Profilaktik hisobdagi ruhiy kasallarning ruhiy va salomatlik holatlari o'zgarib tajovuzkorligi oshsa va bu bilan o'ziga yoki yaqin atrofdagilarga xavf tug'dirsa, u holda ushbu holatda ham tegishli sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda ularni davolash uchun yuborish choralarini ko'radi. Profilaktika inspektori jinoyat, yo'l-transport hodisasi, yong'in va boshqa turli hodisalar sodir bo'lgan joyga yetib kelib, jarohat olgan fuqarolar borligini aniqlagan holatlarda zudlik bilan tibbiy yordam xizmatiga xabar beradi, ular yetib kelguniga qadar esa fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, inson hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq noxush hodisa va holatlar yuz berganda, jumladan, bevaqt o'lim aniqlanganda ham profilaktika inspektori sog'liqni saqlash muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda hodisaning sabablari va unga imkon bergen sharoitlarni aniqlash, oqibatlarni bartaraf etish choralarini ko'radi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, profilaktika inspektorining sog'liqqa qarshi huquqbazarliklarni oldini olish, ularni ochish va bunday huquqbazarliklarga oid ishlarni yuritish sohasidagi faoliyatining o'zi ham jamiyatda ijtimoiy sog'lom muhitni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Profilaktika inspektorining sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorligi deganda, ushbu profilaktika inspektorining o'ziga biriktirilgan xizmat hududidagi aholining sog'lig'iga qarshi bo'ladigan tajovuzlar va huquqbazarliklar sodir etilishining yoki sodir etilgan shunday huquqqa xilof harakatlarining fosh etilishida sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan, qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi. Profilaktika inspektori ushbu sohada hamkorliklagi



faoliyatini ma'muriy hududda joylashgan oilaviy vrachlik punktlari, poliklinika va shifoxona xodimlari bilan birgalikda amalga oshiradi. Mazkur hamkorlikni shartli ravishda quyidagi shakllarda ko'rib chiqishimiz mumkin:

- *o'zaro axborot almashish shaklida* tomonlarning faoliyatga doir hamkorlikdagi muayyan chora-tadbirlarini rejalashtirish, huquqbuzarlik faktlari haqida ma'lumot berish yoki ishga doir boshqa ma'lumotlarni o'zaro almashgan holda ma'lum vazifalarni o'zaro hal qilish faoliyatida namoyon bo'ladi;

- *amaliy hamkorlik shaklini* tomonlarning huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik chora-tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish, shuningdek huquqbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqishda tibbiyot sohasidagi maxsus bilimlarga ega bo'limgan mutaxassislarni jalgan etish kabi amaliy hamkorliklarda kuzatish mumkin.

Profilaktika inspektori bilan sog'liqni saqlash organlari xodimlari o'rtaqidagi hamkorlikning yuqorida keltirib o'tilgan shakllari bo'yicha olib boriladigan amaliy faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. aholi o'rtaida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shuningdek, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

2. surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mubtalo bo'lgan bemorlar, ruhiy kasallar va boshqa shu kabi shaxslarning majburiy davolanishini ta'minlash;

3. hayot va sog'liqqa qarshi qaratilgan jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va imkon bergen sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishda hamda jinoyatlarni o'z vaqtida "issiq izi"dan ochishda o'z aksini topadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra hozirgi kunda butun yer yuzida OITSga chalingan bemorlar soni 25 milliondan ortiqni tashkil etadi. Har yili O'zbekistonda



kamida 100 ga yaqin OITS va teri-tanosil kasalliklariga chalingan bemorlar aniqlanadi. Mazkur ma'lumotlar vaqtida aniqlanmasa ushbu kasalikka chalingan fuqarolardan ularning oila a'zolariga, yaqinlariga yuqishi mumkinligi bizni yanada ogohlilikka chaqiradi. Zero, ichki ishlar organlarining sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorlikdagi o'zaro hamjihatlik bilan qilgan harakatlari boshqa noxush holatlarning vujudga kelishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, profilaktika inspektorining nafaqat sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligi huquqbazarliklarning oldini olish, ularni ochish va huquqbazarliklarga oid ishlarni yuritish sohasida, balki jamiyatda ijtimoiy sog'lom muhitni barqarorlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanimanadabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2.O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407 son qonuni
- 3.O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda qabul qilingan "Huquqbazarliklar profillaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371 son qonuni
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda qabul qilingan PF-6196 son farmoni
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-aprelda qabul qilingan PQ 5050 son qarori
6. <http://www.lex.uz> sayti